

YUQORI SINFLARDA ONA TILI FANINI O'QITISHNING AHAMIYATI**Soatova Hilola Shuxrat qizi**

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti 1-bosqich magistranti

E-mail: hilolasoatova789@gmail.com

Tel: +998940823038

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15353145>

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishning pedagogik, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish nuqtai nazaridan ahamiyati chuqur tahlil etilgan. Ona tili fanining mazmuni, uslubi va metodik yondashuvlari orqali o'quvchilarni ongli fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, ma'naviy yetuk, ijtimoiy faolligi rivojlangan shaxs sifatida shakllantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ona tili fanining beqiyos ahamiyatga ega ekani, ayniqsa bu bosqichda o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'z fikrini ona tilida aniq-ravon ifoda eta olishi, yoza olishi, o'qish davomida uqish kabi dolzarb masalalar kun tartibida turgani ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: ona tili, boshlang'ich sinflar, umumta'lim maktabi, ona tili fanining ahamiyati, o'z ona tiliga bo'lgan hurmat, shaxsiy rivojlanish, o'quvchi shaxsi.

Hozirgi davrda ta'lim jarayonida shaxsni har tomonlama rivojlantirish va uni jamiyatga foydali inson sifatida shakllantirishga, u o'z ona tilini sevishni o'rgatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, maktab ta'limining boshlang'ich bosqichidan boshlab, ya'ni 1-4-sinflardan boshlab ularni ona tilini bilishiga, tarixi bilan qiziqishiga, o'z ona tilida aniq, ravon so'zlay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan ona tili fanini o'qitish – bu nafaqat o'quv dasturi bandini bajarayotganlik, balki yosh avlod ongiga ijtimoiy, axloqiy, madaniy va milliy qadriyatlarni chuqur singdirish jarayonidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ilk maktabga kirib kelgan kundan boshlab ularga o'z ona tillari haqida dars soatlari shakllantiriladi. Maqsad o'quvchi ongida vatanga bo'lgan muhabbatni kuchaytirish, uning milliy qadriyatlari, tilini asrab avaylashga undash hisoblanadi. Shu bois, ona tili fanining mazmuni va uni o'qitish metodikasi o'quvchilarning ehtiyojlari va zamonaviy hayot talablari bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarur. Bu fanning ahamiyati shundaki, u o'quvchilarni nafaqat “kim bo'lish”ga, balki “haqiqiy vatanparvar inson bo'lish”ga o'rgatadi.

Ona tili fanining boshlang'ich sinflardagi tutgan o'rni

Ona tili fani maktab ta'limining ajralmas qismi bo'lib, uning vazifasi o'quvchilarni bilim bilan birga, o'zbek tilini biluvchi haqiqiy yetuk inson bo'lib shakllanishiga xizmat qilishdir. Ayniqsa, 1-4-sinflarda bu fanning ahamiyati yanada ortadi, chunki o'quvchilar:

- Aynan shu yoshda o'quvchi bilim olishga chanqoq bo'ladi ;
- jamiyatdagi tengdoshlari bilan muloqatga kirisha boshlaydi;
- bir qancha xorijiy tillarni o'rganishni boshlaydi va o'z ona tiliga bo'lgan muhabbat oshadi.

Shunday muhim bosqichda ona tili fanining mavjudligi o'quvchilarda mustahkam til me'yorlarni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ona tiliga bo'lgan cheksiz muhabbati oshib boradi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili fanining mashg'ulotlari turi va mazmuni

Boshlang'ich sinflarda ona tili fani quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- o'qish, yozuv, grammatik materiallarni o'rganish, kuzatishlar ham o'quvchilarning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq holda ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

- Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularning elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu kamchiliklarni malakaga aylantirish
- Adabiy til normalarini, ya'ni ularning imloviy va punktuatsion savodli yozuvini, orfoepik to'g'ri talaffuzini o'rganish nutq va uslubiy elementlarini egallash.
- Grammatika, fonetika, leksikadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan ilmiy tushunchalarni shakllantirish.
- O'quvchilarni o'qish va Grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda adabiy asarni idrik etish ko'nikmasini hosil qilish.

Yuqoridagi vazifalarning barchasini ona tili fani asosiy predmet sifatida o'rgatadi. Ularda ifodalangan barcha mashg'ulotlar ona tili dasturida aks etgan. Dastur davomida hujjati hisoblanib, unda boshlang'ich sinf o'quvchisi o'rganishi lozim bo'lgan barcha bilim, ko'nikma va malakalar berilgan bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchilar ona tili fanini shu dastur asosida olib boradilar va unda berilgan talablarga ko'ra ish tutadi.

O'qituvchining roli va metodik yondashuvlar

Ona tili fanining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiga va metodik yondashuvlariga bog'liq. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda o'qituvchi:

- Interfaol usullar (munozara, rolli o'yin, loyiha ishlari) orqali darslarni qiziqarli tashkil etishi;
- Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida har bir o'quvchining ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olishi;
- Zamonaviy texnologiyalar, media vositalaridan samarali foydalanishi kerak.

O'qituvchi o'z shaxsi, muomalasi, hayotga munosabati orqali o'quvchilar uchun namuna bo'lishi lozim. Shuning uchun tarbiyaviy faoliyatda pedagogning madaniyati, kommunikativ ko'nikmalari va ijtimoiy faolligi muhim omillardan hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarning ona tili fani dasturi ikki qismdan iborat:

- Uqtirish xati
- Asosiy qism

Uqtirish xatida ona tili fanining tutgan o'rni, uning vazifalari ko'rsatilib, metodik yo'l yo'riqlari beriladi.

Asosiy qismda esa darslik bo'yicha berilgan mavzular bayoni, uning o'quvchi shaxsiga qaratilgan ta'limiy-tarbiyaviy jihatlari ko'rsatiladi.

Bugungi kun yoshlari ertangi jamiyatning tayanchi ekanini inobatga olib aytganda, tarbiya fanini yuqori sinflarda chuqurlashtirilgan holda o'qitish — bu jamiyatning ertangi barqarorligini ta'minlash deganidir.

Xulosa qilib aytganda, ona tili fanining boshlang'ich sinflarda o'qitilishi – bu oddiy dars jarayoni emas, balki jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan strategik ahamiyatga ega faoliyatdir. O'quvchilar bu bosqichda ayni bilim chanqoq, bilishni xohlaydiga yoshda, juda qiziquvchan bo'lishadi. Aynan ona tili fani esa bu jarayonda bosh yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi. Ona tili fanining sifatli o'qitilishi uchun zamonaviy, kreativ va mas'uliyatli pedagoglar zarur. O'qituvchi o'zining bilim va ko'nikmalariga tayangan holda o'quvchilarning qalbiga ona tilimizni jo qilishi, ularda ijobiy fazilatlar shakllantirishi kerak. Darslar faqat og'zaki

nazariy ma'lumotlar emas, balki real hayotiy vaziyatlar, amaliy topshiriqlar, ochiq muloqotlar orqali olib borilishi lozim. Shunday ekan, boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitish – bu nafaqat o'quvchining bugungi kuniga, balki uning ertangi kuniga, jamiyatning istiqboliga qo'yilgan mustahkam poydevordir. Ona tili darslari orqali shakllanadigan shaxs – bu Vatan ravnaqi va kelajak taraqqiyotining asosiy kuchidir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent: Adolat, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ-60-son qarori "O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish va ta'lim sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. G'ulomov A, Qodirov M, Ernazarova M, Bobomurodova A, Alavudinova N, Karimjonova V. ONA TILI O'QITISH METODIKASI. Toshkent-2012.
4. Axmedov, M. A., Juraev, J. A. Pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 304 b.
5. Karimova, G. A. Ma'naviy tarbiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 180 b.
6. Qosimova K. Matchonov S. G'ulomova X. Yo'ldosheva Sh. Sariyev Sh. ONA TILI O'QITISH METODIKASI."Bayoz" Toshkent. 2022. 12-13-bet
7. Normatov U. "Ona tili o'qitishning dolzarb muammolari", -T.: 2008 y
8. www.pedagog.uz www.tdpu.uz https://uz.wikipedia.org/wiki/Ona_tili